

XURSHID DAVRON SHE’RLARIDA AN’ANAVIY VA INDIVIDUAL METAFORALAR QO’LLANISHI

Farxodov Temur Dilshod o’g’li

Alisher Navoiy nomidagi TOSHDO‘TAU 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20038742>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metaforaning mohiyati, uning poetik nutqdagi o’rni hamda o’zbek she’riyatidagi qo’llanish xususiyatlari yoritiladi. Xurshid Davron she’riyati misolida an’anaviy va individual metaforalarning badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Metaforaning obrazlilikni kuchaytirish va poetik tafakkurni ifodalashdagi roli ochib beriladi.*

Kalit so’zlar: *metafora, poetik nutq, individual metafora, an’anaviy metafora, obrazlilik, Xurshid Davron*

Annotation: *This article discusses the nature of metaphor, its role in poetic discourse, and its use in Uzbek poetry. Based on the works of Khurshid Davron, the artistic significance of traditional and individual metaphors is analyzed. The study highlights the role of metaphor in enhancing imagery and expressing poetic thinking.*

Keywords: *metaphor, poetic discourse, individual metaphor, traditional metaphor, imagery, Khurshid Davron*

Metafora (yunoncha “metaphora” — ko’chirish, o’tkazish) — bu bir predmet yoki hodisaning belgi-xususiyatlarini ikkinchi bir predmet yoki hodisaga o’xshashlik asosida ko’chirish orqali hosil qilinadigan badiiy-tasviriy vositadir. Metafora tilning leksik-semantik qatlamida muhim o’rin tutadi va nutqning obrazlilikini, ifodalilik darajasini oshiradi.

Metafora – predmetlar o’rtasidagi o’xshashlikka asoslangan poetik ko’chim: o’xshashli ko’chim. Metafora hamma vaqt o’xshashlik asosida yuzaga kelsa ham, biroq u o’xshatishdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

a) o’xshatishda o’xshatiluvchi ham, o’xshatilmish ham ma’lum grammatik vositalar bilan birgalikda o’z ma’nolarida qatnashadilar. Metaforada esa o’xshatiluvchi narsa o’rnida o’xshatilmishning o’zi ko’chma ma’noda keladi;

b) o’xshatishda hamma vaqt ikki yoki uch komponent ishtirok etib, u xohlagancha kengayishi mumkin bo’lsa, istiorada ko’chma ma’no tashuvchi bir komponentgina ishtirok etadi.¹

O’zbek tilida poetik nutq leksikasini tadqiq etgan B.Umurqulov metaforalar borasida alohida to’xtaladi hamda tilshunoslar: M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, R.Qo’ng’urov, A.N.Kojin, K.A.Dolininning izohlariga² qo’shimcha tarzda, hozirgi o’zbek poeziyasida uchraydigan poetik metaforalarni ikkiga bo’lib ko’rsatadi va ushbu guruhlarni: 1)umumpoetik metaforalar; 2)individual metaforalar deb nomlaydi. Metafora so’zning ma’no qirralarini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida tilda ilgari mavjud bo’lgan nomning yangi ma’no ifodalash uchun qo’llanishida nominatsiya vazifasining bajarilmasdan, tinglovchiga ta’sir etish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi va tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ana shu ma’noda olib qaraladigan bo’lsa, she’riy matnning hissiy-tasirchanligini oshirishda metaforik ifoda yuqori darajadagi uslubiy vosita ekanligi namoyon bo’ladi.

¹ Н.Хатамов ва Б.Саримсоқов “Адабиётшунослик терминларининг Русча-ўзбекча изоҳли луғати” “Ўқитувчи” Тош.:1979. 175-бет

² Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. - Тошкент: Фан, 1990.

O‘zbek xalqining taniqli shoiri Xurshid Davron she‘riyatini kuzatar ekanmiz, unda ona tilmizning boy, betakror lisoniy xususiyatlari go‘zal misralarda jilolanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xurshid Davron ijodida qo‘llangan metaforalar badiiy pardo bo‘libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to‘g‘risida ham ma‘lumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o‘zi ham original, yangi metaforalar yaratadi.

Shoir she‘rlarida metaforalar nafaqat obrazlilikni kuchaytirish vositasi, balki poetik tafakkurning ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, uning she‘riyatida xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot an‘analariga tayanilgan an‘anaviy metaforalar bilan bir qatorda shoirning individual dunyoqarashi mahsuli bo‘lgan individual metaforalar ham keng uchraydi.

An‘anaviy metaforalar asosan o‘zbek she‘riyati uchun xos bo‘lgan obrazlar tizimiga tayansa, individual metaforalar shoirning o‘ziga xos badiiy tasavvuri va yangicha poetik qarashlarini aks ettiradi. Shu bois Xurshid Davron she‘riyatidagi metaforalarni an‘anaviy va individual turlarga ajratib o‘rganish shoir poetikasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Xurshid Davron she‘riyatida an‘anaviy metaforalar shunchaki tayyor poetik qolip sifatida qo‘llanmaydi, balki shoirning individual badiiy tafakkuri asosida yangicha mazmun bilan boyitiladi. Shoir xalq va mumtoz adabiyot an‘analarida shakllangan metaforik obrazlarga o‘ziga xos dunyoqarashi nuqtayi nazaridan yondashib, ularning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada an‘anaviy metaforalar muallif poetik tafakkuri orqali qayta talqin qilinib, o‘ziga xos va original badiiy tasvir vositasiga aylanadi.

Masalan, shoirning Pablo Nerudaga bag‘ishlab yozgan quyidagi she‘riga e‘tibor qarataylik:

*Okean yoqasida o‘tlarga ko‘milib,
Cho‘zilib yotgan o‘lka – Pablo Neruda.
U go‘yo hozirgina ummondan chiqib
Quyoshda toblangan buyuk Esteban.*

*To‘lqinlar urilar oyoqlariga,
Sochlarida uxlar chag‘alay
Qo‘llarining qadoqlarida
Quyosh nuri qush kabi o‘ynar.³*

Xurshid Davron shoirni o‘zi tug‘ilib o‘sgan o‘lka ramzida ko‘rar ekan, uning tashqi ko‘rinishini ham shu manzil tabiatiga mengzaydi. Ikkinchi badda “shoir sochlarida uxlayotgan chag‘alay” okean qarshisidagi o‘lkani tasvirlash bilan birga, Vatani deya yashagan, unga borini baxshida etgan shoirning shu o‘yda keksayganini va sochlariga oq oralaganini ham ifodalayapti chamamda.

Xalq og‘zaki ijodi mumtoz adabiyotimizda keksalik belgisi sifatida oqqush metaforasi keng qo‘llanadi. Jumladan, Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” dostoni nihoyasiga yetganida adibning yoshi ellikdan yuqori (“Tegurdi manga algi ellik yashim») bo‘lgan. Har holda u “(qora) quzg‘un tusiteg boshim (sochlarim) qug‘u (oqqush)” bo‘ldi deb ta‘kidlaydi. Demak, bu poetik obraz o‘z vazifasida uzoq yillardan buyon she‘riyatimizda qo‘llanib kelmoqda. Ammo Xurshid Davron qalami ostida bu metaforaga individual yondashuv ham qo‘shiladi.

³ Xurshid Davron. Tanlangan asarlar. – Toshkent, “Adabiёт”, 2025. 32-bet

Individual metafora — bu shoirning o‘ziga xos tasavvuri, ichki dunyosi va estetik qarashlari asosida yaratilgan, umumxalq tilida odatiy bo‘lmagan, lekin kontekstda chuqur ma’no kasb etadigan obrazli ifodadir. Bunday metaforalarda o‘xshashlik tashqi belgiga emas, balki ichki, ko‘pincha assotsiativ va psixologik bog‘lanishga asoslanadi. Xurshid Davron she‘riyatida bu holat ayniqsa tarixiy obrazlar, vaqt, xotira va ruhiy kechinmalar tasvirida yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, quyidagi she‘rga e’tibor bersak:

Deraza – beshafqat chegara –

Parchagina osmon ko‘rinur.

Deraza, ko‘ksimda sen yara.

Deraza – qora tun, oydin nur.

Deraza qanotin qayirsang,

Qalbimni qurshasa doira.

Bir parcha umiddan ayirsang,

Men kimga ishonay, hamshira!⁴

Ushbu she‘rda “deraza” obrazi markaziy poetik birlik sifatida ko‘p qatlamli individual metaforalar tizimini yuzaga keltiradi. Xurshid Davron bu obrazni an’anaviy “yorug‘lik manbai” yoki “tashqi olamga yo‘l” sifatida emas, balki subyektiv ruhiy holatni ifodalovchi murakkab semantik markaz darajasiga ko‘taradi. Natijada “deraza” real predmetlik chegarasidan chiqib, ichki kechinmalar, izolyatsiya, umid va iztirobni birlashtiruvchi individual metaforik maydonga aylanadi.

Birinchi badda:

“Deraza – beshafqat chegara”

Bu metafora orqali deraza ikki olam — ichki (subyektiv ruhiy makon) va tashqi (real borliq) o‘rtasidagi ajratuvchi chiziq sifatida talqin qilinadi. “Beshafqat” sifati bu chegaraning shunchaki fizik emas, balki ruhiy bosim, ajralish va yolg‘izlikni kuchaytiruvchi omil ekanini bildiradi. An’anaviy poetikada deraza ko‘proq ochilish, umid belgisi bo‘lsa, bu yerda u aksincha — ajratish va cheklash timsoliga aylangan. Bu esa metaforaning individualligini ta’minlaydi.

Deraza, ko‘ksimda sen yara”

Eng kuchli individual metaforalardan biri. Deraza bu yerda tashqi predmet emas, balki ichki jarohatga aylantiriladi. “Ko‘ksimda” deyish orqali shoir uni jismoniy emas, ruhiy og‘riq darajasiga olib kiradi. Deraza — ajratuvchi chegara sifatida endi ruhiy azobning manbai, ichki iztirob sifatida talqin qilinadi.

“Deraza – qora tun, oydin nur”

Bu satrda antitezaga asoslangan murakkab metafora mavjud. Deraza bir vaqtning o‘zida qarama-qarshi holatlar — “qora tun” (zulmat, umidsizlik) va “oydin nur” (umid, yorug‘lik)ni mujassam etadi. Bu ikki qutblilik lirik qahramon ruhiyatidagi ziddiyatni aks ettiradi. Deraza shu tariqa dualistik ramzga aylanadi.

Ikkinchi badda metaforik tizim yanada dinamiklashadi:

“Deraza qanotin qayirsang”

⁴ Xurshid Davron. Tanlangan asarlar. – Toshkent, “Adbiёт”, 2025. 23-bet

Bu yerda deraza jonlantiriladi, unga “qanot” beriladi. “Qayirmoq” esa yopilish, cheklanishni anglatadi. Demak, erkinlik imkoniyati mavjud bo’lgan holda uning yopilishi ruhiy qamalishni bildiradi.

Umuman olganda, ushbu bandlarda “deraza” obrazi individual metafora sifatida ko’p funksiyali semantik markazga aylangan: u chegara, yara, nur va zulmat, erkinlik va qamalish, umid va iztirobni birlashtiradi. Shoir an’anaviy obrazni yangicha, subyektiv va psixologik chuqurlik bilan qayta talqin qilib, o’ziga xos individual metaforik tizim yaratgan.

Shu bilan birga, Xurshid Davron ijodida metafora yaratish jarayoni faqat mavjud timsollarni qayta talqin qilish emas, balki butunlay yangi metaforik birliklarni vujudga keltirish bilan ham xarakterlanadi. Bu esa shoirning badiiy tafakkuri yuqori darajada ijodiy va mustaqil ekanini ko’rsatadi. U oddiy hayotiy detallar, kundalik tasavvurlar yoki noodatiy obrazlar orqali yangi ramziy tizim yaratadi va bu tizim orqali zamonaviy insonning ruhiy holati, ijtimoiy muammolari hamda ichki ziddiyatlarini ifodalaydi.

Bunday yondashuv natijasida metafora faqat til bezagi emas, balki g’oyaviy-estetik yuk tashuvchi asosiy badiiy mexanizmga aylanadi. Shoir yaratgan yangi metaforalar o’quvchini tayyor ma’noni qabul qilishga emas, balki uni qayta idrok etishga, chuqurroq fikrlashga undaydi. Shu jihatdan, Xurshid Davron she’riyatida metafora tizimi an’anaviylik va yangilik uyg’unligida shakllangan murakkab badiiy hodisa sifatida namoyon bo’ladi. Masalan, shoirning “***” sarlavhali she’rini tahlilga tortsak:

*Tush ko’raman olis qishloqni,
Tun sutini ichar u mudrab.
Va tishlangan yarim pishloqni –
Oyni o’par daraxtlar titrab.⁵*

She’riyatda obrazlar orqali fikrni ta’sirchan yetkazish, ma’noni ichki kechinmalar bilan uyg’unlashtirish muhim badiiy vositalardan biridir. Shular qatorida Oy obrazi o’zbek adabiyotida, ayniqsa lirik she’riyatda o’zgacha o’rin tutadi. Oy — bu shunchaki osmondagi yorituvchi emas, u sokinlik, kecha, sir, ma’sumlik, poklik, go’zallik, yurakdagi iztirob va umidning ramzidir. Shu jumladan, oy bilan bog’liq metaforik uslublar ham an’anaviy she’riyatimizda keng tarqalgan bo’lib, uning shaklini o’roqqa, ko’rinishini esa suyukli yorning yuziga, shuningdek, insonning dardlariga hamroh yo’lovchi sifatida talqin etish ko’zga tashlanadi. Oy obrazi ruhiyatga ta’sir qiluvchi poetik manba, his-tuyg’ular katalizatori sifatida qaralar ekan, Xurshid Davron bu obrazga nisbatan original, individual metafora qo’llaydi – **tishlangan yarim pishloq**.

Avvalo, bu metafora realistik obyektga tayangan holda (pishloq) uning shakliy o’xshashligi orqali Oy obraziga assotsiativ ko’chish hosil qiladi. Bu yerda asosiy poetik mexanizm — vizual o’xshashlik va kutilmagan semantik siljishdir. “Tishlangan” epiteti esa bu metaforani oddiy vizual o’xshashlikdan chiqarib, unga jarohat, kamayish, yetishmovchilik semasini yuklaydi. Bu juda muhim: oy endi to’liq, mukammal kosmik obyekt emas, balki “kamaygan”, “buzilgan” holatda tasvirlanadi. Bu orqali shoir o’z kechinmalari, qalbidagi kemtiklarini ham ifodalayotgan bo’lsa, ajab emas.

⁵ Хуршид Даврон. Танланган асарлар. – Тошкент, “Адабиёт”, 2025. 34-бет

Pishloq” — juda oddiy, maishiy predmet. “Oy” esa kosmik, yuksak poetik timsol. Shoir shu ikki qutbni birlashtirib, quyi va yuksak realliklar orasida kutilmagan metaforik ko‘prik yaratadi. Bu esa individual metaforaning asosiy belgisini beradi.

Xulosa qilib aytganda, metafora o‘zbek she‘riyatida muhim badiiy vosita sifatida nafaqat obrazlilikni kuchaytiradi, balki shoirning poetik tafakkurini ham ifodalaydi. Xurshid Davron ijodida an’anaviy va individual metaforalar uyg‘unlashib, yangi semantik va estetik mazmun kasb etadi. Shoir metaforalar orqali borliqni o‘ziga xos talqin qiladi hamda o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. She‘rlar, rivoyat , tarjimalar. Toshkent:Sharq, 1997.
2. Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.
3. Н.Хатамов ва Б.Саримсоқов “Адабиётшунослик терминларининг Русча-ўзбекча изоҳли луғати” “Ўқитувчи” Тош.:1979.
4. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. - Тошкент: Фан, 1990
5. Хуршид Даврон. Танланган асарлар. – Тошкент, “Адабиёт”, 2025